



## BIOLOGIYANI FANINI O'QITISH METODIKASI

**Alimova Ruhshona Husan qizi**

*Qarshi Davlat Universiteti sirtqi ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi*

**Annostatsiya:** *Mazkur maqolada biologiya o'qitish metodlar yordamida biologiya fanini o'qitishning xususiyatlari tahlil qilib o'tildi. Biologiyani o'qitish metodikasi pedagogika fani sifatida didaktika bilan uzviy bog'liqdir. Biologiya o'qitish metodikasi maktab biologiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'lim va tarbiyaning mazmuni, shakllari, usullari va vositalarining nazariy va amaliy muammolarini ishlab chiqadi. Biologiyani o'qitish metodikasi psixologiya bilan chambarchas bog'liq, chunki u bolalarning yosh xususiyatlariga asoslangan. Biologiya darslarida o'quvchilarni to'laqonli o'quv-bilim jarayonining subyektiga aylantirish yo'llari qamrab olinishi darkor.*

**Kalit so'zlar:** *biologiyani o'qitish metodikasi, diktaktik usullar, pedagogik yondashuv, psixolog holat, biologik ta'lim maqsadi.*

### **Kirish:**

Bugungi kunda rivojlanayotgan ta'lim umumiy o'rta ta'lim tizimida biologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash muammosi ta'lim miqyosida dolzarb hisoblanadi. Biologiyaning rivojlanishi va uning yutuqlarini jamiyat hayotiga tadbiiq etilishi va maktabda biologik ta'limning ahamiyati toboro ortib bormoqda. Mutahasis tayyorlash jarayonida o'qituvchining bevosita o'quvchiga talim berayotgan turli xil metod va shakllar yordamida organik olamning qonuniyatlari, hodisa va voqealarning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va bilim ko'nikma va malakalarni egallaydi. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi baholaydi va o'qitishdan ko'zda tutilgan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi.

O'qituvchi uchun ta'lim jarayoni, o'quvchilarning faoliyati bilan uzviy bog'langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o'zgartirishlar kiritadigan ish jarayoni, kasbiy pedagogik faoliyat bir-biriga uyg'un ravishda tashkil etilgandagina o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish dars strukturasiining asosini tashkil etadi. Shu sababli bu masalani chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ta'lim dargohlarida Biologiya fani o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashini, ya'ni dunyo, inson va olam o'rtasidagi munosabatlar haqidagi eng umumiy qarashlar tizimi shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari u shaxsning hayotiy dasturini, e'tiqodni, qiziqishlarni belgilaydi. Biologiyani o'qitish jarayonida tabiiy fanlarning hozirgi holatiga muvofiq ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish voqelikni yaxlit idrok etishning tabiiy extiyoji bilan bog'liq holda falsafiy muammolarga qiziqishi ortgan o'rta maktab o'quvchilari uchun alohida ahamiyatga ega. Maktab



biologiyasini boshqa fanlarga o'xshamagan holda, tabiat hodisalarga tizimli va tarixiy yondashuv birligini bilim kuchini ko'rsatishga yordam beradi. Biologiya o'qitish jarayonida maktab o'quvchilarni dealitik tafakkurini rivojlantirish bilan birgalikda ulardan organik dunyoning ilmiy manzarasi, hayotning tarixiyliigi va uning harakatn tizimdagi o'rni, qarama-qarshi bilish usullari bilan ochib beriladi. Biologiya maktab tizimidagi Tabiatshunoslik siklining yetakchi fanlardan biridir, chunki u shaxsning shakillanishida va rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Biologiyani o'qitish metodikasi biologiya o'quv fanlarning mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq qilib qo'yadi. Biologiya o'qitish metodikasining asosiy vaifasi o'quvchilarga biologik o'quv fanlar bo'yicha chuqur atroflicha bilim berish, ularning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishiga ko'mak beruvchi o'quv fanlar mazmunini, o'qitish shakllari, vositalari va metodlari ishlab chiqishdan iborat. Hozirgi davrga kelib, biologiya o'qitish metodikasida o'tkazilgan pedagogik tajribalar natijasidan biologik tushunchalarni rivojlantirish, Biologiya o'qitish metodikasi umumiy biologiyaning o'qitish metodikasi kabi xususiy o'qitish metodlarga ajratilgan, va shu bilan birgalikda pedagogik axborot texnologiyalari qo'llash, biologiya o'qitishda innavatsion yondashish ko'nikmalarni hosil qiladi.



Biologiyani o'qitish metodikasi biologiya fanlarning mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etishni maqsad qilib qo'yadi.

Biologiya o'qitish metodikasi ilmiy tadqiqot metodlari

1. Maktab o'qtuchilarning ish tajribasining kuzatish va faoliyatdagi ijobiy Salbiy tomonlarini aniqlash.
2. Bu sohada to'plangan ma'lumotlarni taxlil qilish, umumlashtirish va hal etilmagan muammolarni aniqlashtirish va ularni hal etish uchun zarur ishchi farazlarni ilgari surish.
3. Ilgari surilgan farazlarning qanchalik hayotga yaqin ekanliklarini aniqlash maqsadida maktablarda pedagogik tajribalar o'tkazish hamda tajribaviy nazorat sinflardan olingan ma'lumotlarni o'zaro taqqoslash.

Biologiyani o'qitish metodikasi hozirgi davrda samarali bo'lishi o'quvchilarning o'quv, mehnat va jamoat faoliyatida qatnashish uchun bo'lgan biologik bilimlar, ko'nikmalar malakalarni egalaganliklari bilan bilan belgilanad. Ular esa o'z

navbatida o'quvchilarning tarbiyalanganlik natijasida, dunyoqarashi, e'tiqodi, tabiati, jamiyat va shaxsga bo'lgan munosabati namayon bo'ladi.

Biologiyani o'qitish metodikasi barcha o'quv fanlarga taluqli bo'lgan pedagogikga oidlarni Biologik o'quv materialiga tadbiiq etish etishga yo'nalgan. Shu bilan bir qatorda bir qatorda biologiya o'qitish metodikasi tabiiy, ilmiy, biologik, psixologik va pedagogik bilimlarni o'zida mujassamlashtitgan.

Biologiya o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchilarga biologik o'quv fanlar bo'yicha chuqur atroflicha bilim, berish ularning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatidakamol topishga ko'mak beruvchi o'quv fanlar mazmuni, o'qitish shakillari, vositalari va metodlarini ishlab chiqishdan iborat.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytish mumkinki, ta'lim jarayonidagi metodlar o'qituvchi faoliyatini belgilab beruvchi holatdir. Biologiyani o'rganishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun dasning o'quvchilarning o'tgan mavzu yuzasidan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, ularni tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o'rganish jarayonida lokal texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyasi.-T O'zMU.2003-66 b.
2. O.U Avlayev, S.N Jo'rayev, S.P.Mirzayeva "Ta'lim metodlari" O'quv-uslubiy qo'llanma,"Navro'z" nashriyoti, Toshkent-20
3. S.X Sulfullayeva Biologiyani O'qitish metodikasi o'quv qo'llanma